



O'ZBEK ADABIYOTIDA "TELBA" OBRAZI

Sirojiddinova O'g'loy Mansurjon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotidagi telba obrazi badiiy qahramon sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mumtoz hamda zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari asosida telba obrazining o'ziga xos estetik xususiyatlari, voqea-hodisalarni betakror nigoh bilan idrok etuvchi shaxs sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada telbaning syujetdagi roli, badiiy tipologiyasi, ichki kechinmalari hamda jamiyatga munosabati chuqur o'rganilgan. Shu bilan birga, adiblarning telba obrazidan ijtimoiy-ma'naviy tanqid, haqiqatni badiiy talqin qilish vositasi sifatida foydalangani misollar orqali ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek adabiyoti, telba obrazi, badiiy tahlil, syujet, estetik tasvir, ijtimoiy-ma'naviy mazmun.*

O'zbek adabiyoti durdonalarini tahlil qilish jarayonida obrazlar olamining keng ko'lamda ekanligining guvohi bo'lamiz. Bu obrazlar "sodda", "jiddiy", "qaysar", "havoyi", "mug'ombir" kabi turli xil xarakter egallari qilib tasvirlanadi. Umuman olganda, asarga qanday obrazlarni kiritish, qanday obrazlarni kiritmaslik -yozuvchiga bog'liq. Yozuvchi o'z asarining mazmundor bo'lishi, davr muammolarining yoritilishi, hayot haqiqatlarining namoyon bo'lishi va boshqalarni aks ettirish uchun o'z asariga turli obrazlarni jonlantiradi. Bu obrazlarning qay darajada o'z vazifasini bajara olishi esa yozuvchining mahoratiga bog'liqdir. Obrazlar olamiga nazar solganimizda, boshqalarga o'xshamagan, hattoki, g'ayritabiiydek tuyuluvchi, asarning boshidan oxirigacha ishtirok etuvchi, yoxud birgina sahnada namoyon bo'lib keyin esa umuman tilga ham olinmaydigan obrazlarga duch kelamiz. Bu obrazlarni umumiy qilib, "telba" obrazlar deya atashimiz mumkin. Yozuvchi o'z asariga nima maqsadda bunday obrazni olib kiradi, bu obrazning asar davomida qanday vazifasi bor kabi savollar tug'ilishi odatiy holdir.

"Telba" so'zining ma'nosi "O'zbek tili izohli lug'ati" da "aqlidan ozgan, devona, jinni"[4] deya berilgan bo'lib, bu so'z biz uchun notanish emas. O'zbek adabiyotida ham "telba" obrazi ishtirok etgan asarlarga ko'p duch kelamiz. Shunday asarlardan biri Murod Muhammad Do'stning "Galatepaga qaytish" qissasidir. Bu qissadagi "telba" obraz esa Murod amaki. Avvalo, bu obrazga qo'yilgan ismga to'xtalaylik. Yozuvchi nega bu obrazni aynan o'zining nomi bilan ataydi. Bu obraz asarning bosh qahramoni emas va asarning boshidan oxirigacha to'liq ishtirok etmaydigan, yordamchi epizodlardan biridir. Ammo bu obraz qatnashgan sahnalar asarning muhim o'rinlariga to'g'ri keladi. Asar xotimasida ham Murod amakiga duch kelamiz. Bosh qahramon G'aybarov tomonidan Murod amakiga



“go‘dakday begunoh odam, qarimasa, dunyoda birgina shu qarimagan bo‘lardi”[1] deya ta'rif beriladi. G‘aybarov bolaligidan Murod amakini taniydi. Qaysidir o‘rinlarda unga havas ham qiladi. Asar davomida G‘aybarov uchun eng sevimli insonlardan biri bu Murod amaki bo‘lib qoladi. “Ammo Murod amakini jinni deyishga G‘aybarovning tili bormaydi. Murod amaki xotiralar tubidan tiniqib chiqqan, xotiraning o‘zi singari aziz, sof va sodda edi”[1]. G‘aybarov Murod amakini ko‘rishi bilan baxtli bolalik davrlarini xotirlaydi. Bola chog‘idagi voqealarni, yaxshi-yu yomon kunlarni eslaydi. Bular orasida Murod amakining ham katta o‘rni borligidan uyalmaydi. Asar boshida Murod amaki G‘aybarovni tanimaydi. Asar oxirida esa uni eslab, hattoki u bilan bir vaqt sog‘ odamdek gaplashadi. Murod Muhammad Do‘st o‘z asarida G‘aybarov timsolida o‘zligini yo‘qotgan bir insonni ko‘rsatib, g‘oyo Murod amaki obrazi orqali o‘zligini topishiga yordam beradi. Umuman olganda, o‘zbek adabiyotida "telba" obrazi qatnashgan asarlar keng muhokamalarga sabab bo‘ladi. Shunday asarlardan yana biri Erkin A‘zamning "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidir. “Anoyining jaydari olmasi” hikoyasida ham yana bir “telba” obrazini ko‘rishimiz mumkin. Bu asardagi telba obraz – Shodi garang. Shodi garang hikoya bosh qahramonlari Ramazon va uning shoir do‘sti bilan qishloqdosh bo‘lgan.

“Chantrimore-Kalamakatore... Shodi garang... Bolaligimizning ertagi, zavqi, quvonchi... Ahyon-ahyonda o‘tkinchilardan birortasiga qarab “Chantrimore!” deb hayqirar, “Chantrimore!” desangiz, “Kalamakatore!” deb javob qaytarar edi”[2]. Hikoya bosh qahramoni Ramazon obrazida ham Shodi garang obraziga xos belgilarni ko‘rishimiz mumkin. Ramazonning ajoyib qiliqlari, boshqa meva emas, o‘zi yoqtirmasada aynan olmalarni hammaga ulashishi (“Men o‘zim olmani uncha yaxshi ko‘rmayman. Yesam - ko‘glim ayniydi”[2]), Shodi garangdan meros bo‘lib o‘tgan ikki ajoyib so‘z-bularning bari bosh qahramon xarakterini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Ramazon qamoqda payti yozgan xatlarga e‘tibor beraylik. “Besh oy davomida undan uchta xat keldi. Ammo...uchalasi ham bittagina so‘zdan iborat: “Chantrimore! Vassalom”[2]. Bundan kelib chiqadiki, bola Ramazonning ruhiyatiga Shodi garang katta ta'sir o‘tkazgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da telba so‘zining yana bir ma'nosi keltirilgan. “Telba” - biror narsaga, kimsaga ortiq darajada berilgan; savdoyi, shaydoyi[4]. Shu tarifga Asqad Muxtorning “Jinni” hikoyasidagi Halim domla obrazini misol qilishimiz mumkin. Hikoyada Halim domlaga “Yozgani-yozgan. Qalin-qalin daftarlarni to‘lg‘azib tashlagan...Aqlligina jinni...” [3] deya ta'rif beriladi. Yozuvchi bu obrazning ismini ham jismiga monand Halim deb ataydi. Halim domla hech kimning ko‘nglini og‘ritmagan, hech kimga hech qanday zarar yetkazmagan. Yuqorida nomi keltirilgan boshqa obrazlar singari xislatlarga ham ega emas. Uning “Ezgu kitob” yozishga urinishi atrofdagi insonlar tomonidan salbiy kutib olinadi. Xatto, yaqin shogirdlari tomonidan ham.

“ - domla chatoq...- dedi Saidumar kabob chaynab turib.

- Ha, nima, kasal-mi?

-Undan battar.





-Yog'-e ,nima... qamoqdami?

-Yo'q...koshkiydi" [3].Halim domla butun umrini bolalarga ilm berish,yaxshilik qilish bilan o'tkazadi.Hikoyani o'qish davomida uning "nihoyatda esli,sog'lom ,ehtiyotkor odam " [3] ekanligini bilamiz.Halim domla butun umri mobaynida jamiyat uchun xizmat qilgan.Uning "Ezgu kitob" yaratishdan bosh maqsadi ham shu jamiyatning foydalanishi uchun.Shu o'rinda,Halim domla xarakterida ham jamiyat e'tiborini qozonish uchun harakat hissi seziladi.Ammo,o'z shogirdi tomonidan uning bu holati qamoqdagi yoki bemor bir odamning holatidan ham achinarli tasvirlanadi.

Azim Hojiahmedovning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" kitobida "telba " so'ziga sinonim sifatida "tentak,devona,savdoyi,jinnisang'i,esvos" [5] so'zlari berilgan.Ushbu sinonimlarga "Fikrlash qobiliyati normal bo'lmagan,aqli noraso" [5] deb ta'rif beriladi. Bu ta'rifning qay darajada to'g'riligi bizga ma'lum emas.Yuqorida nomi tilga olingan uch asar ham va ulardagi uch telba qahramon (Murod, amaki,Shodi garang, Halim domla) ham o'z xislatlari bilan kitobxon qalbidan joy olish qudratiga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, yozuvchi bejiz o'z asariga "telba " obrazini olib kirmaydi.Ma'lum bir davr muammolari, odamlarining asl qiyofasi,turli taqdirlarning turli hikoyalari ular yordamida ochib beriladi.Bu obrazlarning ham asar davomida o'z o'rne,so'zi ,vazifasi bor.Murod amakisiz "Galatepaga qaytish"ni ,Shodi garangsiz "Anoyining jaydari olmasi"ni ,Halim domlasiz Asqad Muxtorning "Jinni " hikoyasini tasavvur eta olmaymiz. Tadqiqot xulosalari o'zbek adabiyotidagi telba obrazi badiiy tasvirning muhim elementi sifatida yozuvchi dunyoqarashi va ijodiy uslubini namoyon etishda yetakchi o'rin tutishini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Murod Muhammad Do'st. "Galatepaga qaytish"."Shosh nashr".Toshkent.2022.
- 2.Erkin A'zam. "Anoyining jaydari olmasi"."Shosh nashr".Toshkent.2022.
- 3.Asqad Muxtor."Jinni".
- 4."O'zbek tilining izohli lug'ati"."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent.
- 5.Azim Hojiahmedov."O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati". "O'qituvchi"
- 6.TA'LIM SIFATI-YANGI O 'ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI
O Sirojiddinova
QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 632-634, 2023
7. AMIR XUDOYBERDI G 'AZALLARIDA MUBOLAG 'A SAN'ATI
O Sirojiddinova
Ta'lim fidoyilari 4 (1), 42-45, 2023